

OILADA BOLA TARBIYASINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15015370>

Ilmiy rahbar:

Ummatova Sitora Shavkatulloevna

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti

"Amaliy psixologiya" kafedrasi dosenti,

psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

sitoraummataova5@gmail.com

Jabborova Nazokat Jobir qizi

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand Davlat universiteti

Psixologiya ta'lim yo'nalishi talabasi

nazokatjabborova6@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada oilada bola tarbiyasining psixologik xususiyatlari, bolaning komil inson sifatida shakllanishida biologik va tashqi ijtimoiy muhit omillari ta'sirining uyg'unligi, bolaning rivojlanishida anomaliya (regress) holatining ruhiy ta'siri yetakchi psixolog va pedagog olimlar hamda Sharq mutafakkir olimlarining qarashlari, fikr-mulohazalari, ilmiy-tadqiqot ishlari hamda bir necha yillik ish tajribalari asosida yoritilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar

bolaning biologik omillari, ijtimoiy muhit, bolaning anomaliya (regress) holati, tarixiy tafakkur, ta'lim-tarbiya, bola psixikasi va uning rivojlanishi, inson, shaxs, individuallik, bolada ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Axloqiy tarbiyani izchil va tartibli amalga oshirishda oila muhiti g'oyat muhim rol o'ynaydi. Inson axloqiy, ma'naviy va ruhiy fiyofasining poydevori oilada qo'yiladi. Shuning uchun ham mashhur allomalar oila tarbiyasiga katta e'tibor berishgan hamda shu masalaga bag'ishlab qator qimmatli asarlar yozishgan. Dono xalqimiz «Bola - boshidan, nihol - yoshidan» degan naqlni beziz aytmag'an. Modomiki shunday ekan, yosh avlodni tarkib toptirish, tarbiyalash Ishini yoshlikdan, oiladan boshlash kerak. Bi- nobarin, oiladagi tarbiya jarayonida har bir daqiqa va fursatni qo'lidan boy berish orqali ota-onalar keyinchalik ko'pgina qiyinchiliklarga duch keladilar. Axir, noto'g'ri tarbiya tufayli nafs balosi o'qiga giriftor

bo'lgan, o'n gulidan bir guli ham ochilmay turib umri hazon bo'lgan yoshlar kammi?

O'zbek xalqining ko'p asrlik boy madaniyati va tarixi bor. Mazkur madaniy meros jamiyatdagi jamiki ma'naviy boyliklarni o'z ichiga qamrab oladi. Ayniqsa, O'rta Osiyo xalqlari pedagogikasi, ma'naviy-madaniy tarixi boy merosga ega bo'lib, ularning mohiyati, mazmuni xalq ijodiyotida, ilg'or mutafakkirlarning asarlarida aks etgan. Xususan, jumhuriyatimiz xalqlariniig pedagogika va ruhshunoslik fanlari bo'yicha merosini o'rganish ishlari hali o'zining ko'pgina tadqiqotchilarini kutib turibdi. Hatto bir necha asrlar ilgari At-Termizi, Ismoil Buxoriy kabi allomalarining inson ma'naviy olamini boyitadigan durdona yodgorliklari, hususan, «Qur'oni karim» mazmunini yoritadigan radiolar majmuasi musulmon olamining hayotbaxsh of- tobidir. Uning nurlaridan yoshlarimiz, farzandlarimizni bahramand etish fursati keldi.

Ma'lumki, yosh avlodga maqsadga muvofiq tarbiya berish uchun ota-onalar ham tarbiyaning vazifasi, maqsadi, vositalari shart-sharoitlari yuzasidan har tomonlama bilimga egabo'lishlari farzandlarining yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ish yuritishlari lozim.

O'zbek oilasida bola tarbiyalashning ishontirish, tushuntirish nasihat, ibrat-namuna ko'rsatish, yaxshi fazilatlarni mashq qilish rag'batlantirish, tanbeh bsrish, ogohlantirish, jazolash kabi usullari qo'llaniladi.

Oilada bola tarbiyasining o'ziga xos qoidalari mavjud bo'lib ota-onalar ulardan o'rinali foydalanishlari lozim. Xususan, ular quyidagicha:

- 1) oilada hissiy moslik, ruhiy xotirjamlik va iliq iqlim yaratish;
- 2) ota-ona obrusini saqlash;
- 3) tarbiyada ota-ona, kattalar o'rtasida talabchanlik birligi;
- 4) bola shaxsini mexnatda tarbiyalash;
- 5) oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi;
- 6) bolani sevish va izzat qilish;
- 7) oilada qat'iy rejim va kun tartibi o'rnatish;
- 8) tarbiyada bolalarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish;
- 9) bola taraqqiyotini aniqlab borish;
- 10) bolada mustaqillik, tashabbuskorlik sifatlarini hosil etish va boshqalar.

Oilaning ma'naviy dunyosini takomillashtirish uchun unda zarur ruhiy xotirjamlik, ibratli ruhiy munosabat, o'zaro totuvlik yaratilgan bo'lishi zarur. Ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatda hamjihatlik, mehr-oqibat, o'zaro hurmat, shirinsuxanlik, bir-biriga g'amturlik mavjud bo'lsa, bunday muomala-munosabat bola tarbiyasiga ijobjiy ta'sir qiladi. Ular o'z farzandlariga chinakam baxt, quvonch hadya etadilar.

Oila a'zolarining did-farosati, qiziqishi, mayllari, ehtiyojlari, intilishlari o'zaro bir-biriga munosib bo'lsa, onaning inoq, ahil turmush kechirishlariga, oilavyy munosabatlarning mustahkam bo'lishiga puxta zamin hozirlaydi. Muayyan darajada shart-sharoitlarning mavjudligi, ota-onaning o'zaro bir-birlarini tushunib turmush kechirishlari, maqsad va vazifalardagi birlik, yuzaga keladigan ziddiyatlarni birligida bartaraf eta olishlari mustahkam oila muhitini shakllantiradi.

O'zbek oilalarining aksariyati o'zining serfarzandligi bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra, ota-onaning hoh o'g'il, hoh qiz, hoh tung'ich, hoh kenja farzand bo'lmasin, ularga teng va odil munosabatda bo'lishi, erkalatmasligi, kattalar namunasi orqali kichiklarni tarbiyalash ijobiy hodisadir.

Kam bolali oilalarda ota-onalar farzandlarini ortiqcha erkalaydilar – bola oilaning tanho ovunchogiga aylanib qoladi. Natijada shunday o'g'il yoki qizlar erka, o'jar, tantiq, shaxsiyatparast bo'lib voyaga yetishi mumkin.

Oilada qat'iy intizom va kun tartibining bo'lishi bolalar tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi. Bolalarning bilim olishdagi yutug'i, ahloqi, salomatlik darajasi ko'p jihatdan oilada qaror toptirilgan oqilona rejimga bog'liq. Shuning uchun ota-onalarning o'zлari ham bu borada ibrat ko'rsatishlari, oqilona tuzilgan oila rejimiga qat'iy amal qilishlari, farzandlarga ham o'rgatishlari darkor. Bu narsa, ayniqsa, qiz bolalar tarbiyasi uchun juda zarurdir. Chunki u katta bo'lgach, nixol kabi boshqa uyga kuchib o'tadi – oila quradi.

Ota-onalarning ichkilikka ruju qilishi, buning oqibati va boshqa sabablarga ko'ra tez-tez sodir bo'lib turadigan oilaviy janjal-mojarolar tufayli bolalarning oromi buziladi, uyqusi qochadi, cho'chiydigan bo'lib qoladi; asab sistemasi kasalligiga chalinadi, farzandlari ko'z o'ngida ota-onaning obrusi to'kiladi.

Oila – bu o'ziga hos xo'jalik bo'lib, uning turmush kechirish muammolari mavjud. Ota-onalar oila a'zolarining amaliy faoliyatlarini uysushtiradi, ularning ovqatlanish, ta'lim olish, ishlash, dam olish, kiyim-bosh bilan ta'minlash kabi kundalik rejimini tashkil qiladi; farzandni bolaligidan boshlab mehnatga, mustaqillikka, shaxslararo ibratli munosabatga o'rgata boradi.

O'zbek oilasi a'zolarining deyarli barchasini savodxon, ma'lumotli deb atasak, xato qilmagan bo'lamiz. Ana shu imkoniyatlar ta'sirida o'g'il va qizlar mulohazali, topqir, ishbilarmon, aql-zakovatli bo'lib voyaga yetmoqdalar.

Oilada bola tarbiyasi ikkiyoqlama ahamiyat kasb etib, faqat farzandlariga ruhiyat va ma'naviyat bilimidan saboq berish bilan qanoatlanib qolmasdan, balki o'zлari ham tarbiya sehlari, xususiyatlari, holatlari mohiyati va ma'nosi yuzasidan yangi-yangi ma'lumotlardan xabardor bo'lib turishlari kerak.

Bola tarbiyasi ota-onalardan maxsus pedagogika va ruhiyat bo'yicha bilimlar, alohida ko'nikmalar bo'lishini qat'iy ravishda talab qilmasa-da, doimiy yuz berayotgan tarbiya muammolarini to'g'ri hal qilish ustida fikr yuritishni taqozo etadi.

O'z farzandlariga ajoyib, go'zal, orzu qilgudek tarbiya berish imkoniyatiga ega bo'lgan ota-onalar umrlarini rohat va farog'atda o'tkazadilar, bolalaridan hamisha oljanoblik, mehribonlik, yaxshilik ko'radilar, dillari aslo jarohat azobini sezmaydi; o'kinish hissiga duchor bo'lmaydilar.

Ota hayotda mashaqatlardan tortib, barcha xursandchitsiklarga gacha, o'zining bukilmasligi, egilmasligi bilan bardosh beruvchi buyuk shaxs sifatida gavdalanadi. Otalar tuproq qorib bino quradilar, metall kesib mashinalar yaratadilar, urug' sepib don oladilar. Ular el boshiga ish tushsa, etik bilan suv kechadilar; o'z xalqining baxti va tug'ilgan yerini ko'krakni qalqon etib quriqlaydilar.

Dahshatli hayot-mamot janglarida qishning izg'irinlisovug'i-yu, yozningtinka quritar issiqlari, ochlikning haftalab, oy lab, yillab bergan azoblariga bardoshli damlar - hamma-hammasi otalar jasorati uchun xos. Ushbu jasoratlardan so'zlovchi eng mu'tabar va eng e'zozly ma'nolar ana shu «ota» so'zida mujassamlashgan, desak, yanglish bo'lmas.

Agar otalar bo'lmasa, osmonimiz musaffo, nonimiz butun, ustimiz but bo'lmasligi hammaga ayon. Shu tufayli ham farzandlarimiz «joningizga jon bo'lay, jonga darmonim otam» deb ashula aytganlarida otaning ana shu fazilatlaridan, jasoratlaridan ilhom olgan bo'lsalar ajab emas.

Oilada otaning rahbarlik va yo'lboshchilik roli to'g'risida ulug' insonlar, buyuk siymolar hikmatli so'zlar aytishgan. Jumladan, bobokalon shoir Alisher Navoiy farzandlarni o'z ota-onalarini qadrlashga da'vat etib: «Birisin oy angla, birisin quyosh», — deya madh etar ekan, otani quyoshga o'xshatadi.

Muhammad Payg'ambar qoldirgan hadislardan birida: «Otangning do'sti bilan do'stlik aloqasini davom ettirishing otangga qilgan yaxshiling hisoblanadi», — deyiladi. Xalq orasida «bir ota unta o'g'ilni boqishga qurbi yetadi, biroq o'nta o'g'il bitta otani boqa olmaydi» degan naqlida chuqr ma'no bor.

Demak, ota yo'lini davom ettirish, uni qadrlash o'g'il uchun farzandlik burchidir.

Ota — oila boshlig'i, posbonidir. Zero, oilaning har bir ko'z ilg'amas yumushlaridagi muammolarning miridan-sirigacha aralashib, unga faqat to'g'ri yo'l ko'rsatib turishdek insoniy masuliyat ota yelkasida turadi. Buni mohiyat jihatdan tushungan erkak o'z ma'nosida ota hisoblanadi; aksincha, bu mu'tabar so'zga faqat isnod keltiradi.

Shu o'rinda otaning oiladagi obrusi masalasi atrofida fikr yuritish joizdir. Ota obruni dastlab oilada mustahkamlaydi. Xotini, bola-chaqasi orasida obru topgan ota jamoat orasida ham, shubhasiz, e'tibor topadi, obru orttiradi.

Tasavvurimizdagi izzat-ikromga sazovor otalar hayotning har bir katta va kichik detallarida ham bosh mexanizmlik rolini o'taydigan, yagona figura sifatida gavdalanuvchi murabbiylardir. Bularsiz hayoti kechgan oilani oila hisoblamaymiz. Chinakam insoniy tarbiya iplarini oilada pishiq va mustahkam etuvchi va yigiruvchi ham yagona ota; uning ruhiy hokimligi, erkaklik g'ururi, olam-olam oriyati esa ; haqiqiy ideal desa bo'ladi. Ha, bunday otalarning ulug'vor siymosi butun borlig'imiz, hayotimiz uchun haqiqiy izzat-hurmat nimaligidan dalolat beruvchi yagona namunadir.

Ota oilada o'z farzandlariga har tomonlama: yurish-turishda, nutq odobida, so'z madaniyatida, o'zaro muomala jarayonida, eng muhimi amaliy ish faoliyatida to'g'rilik va haqoniylik, samimiylik va xolislik yuzasidan namuna ko'rsatmas ekan, bunday oiladagi otada na burd, na hurmat va na obru bo'ladi. Bunday ota «hurmat» va «obru» degan mu'tabar so'zlardan yiroqlashib, dastlab xotini oldida, qolaversa farzandlar orasida beburd, tuturuqsiz, qadr-qimmatsiz, omonat bir begona shaxsga aylanib qoladi. Boshqacha qilib aytganda, bunday otalar qadrsizlanadi.

Oilada obrusiz ota tarbiyasini olgan bola ko'pincha o'g'ri, muttaham, bosqinchi, yo'lto'sar va g'irt bezori bo'lib yetishishi shubhasizdir.

Murg'ak tasavvurli bola ilk tarbiyani oilada oladi. Bola tarbiyasining ilk saboqlari haqida atoqli o'bek pedagogi Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy guliston yoxud Axloq» kitobida quyidagi ibratli o'gitlarni aytgan edi: «Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlantirmak, zehnimizni ravshanlashtirmak lozim».

Bola ota-onaning og'ushidan, iliq nafasidan, qalb haroratidan bahra olib o'sadi. Olam sirlarini farzand dastavval o'zining nuri- diydalaridan o'rganadi. Shuning uchun ota-onani birinchi tarbiyachi muallim deyishadi.

Oilada farzand tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yishning asosiy vositasi uning ma'naviy olamida e'tiqodni shakllantirishdir. Bunga bolani faqat ishontirish yo'li bilan erishish mumkin. Shuning uchun ota-onsa o'g'il-qizlarni tarbiyalashda ularni qurqitishda yoki asossiz buyruq berishga tayanmasdan ish tutishi kerak.

Binobarin, oilaviy va pedagogik tarbiyada otaning obrusi adohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli oilada ota obrusi muammosini keng jamoatchilik hukmiga havola qilish maqsadga muvofiqdir.

Turmush tajribalaridan shu narsa ma'lumki, ota-onaning obrusi davlat va oila a'zolari oldida javobgarlikni his qilishdan boshlanadi. Agar ota-onsa o'z ishi, o'z

burchi uchun javobgar ekanligini his qilsa va unga amal qila olsa, bu ularning obrusidir. Ular o'zlarining xulqida, xatti-harakatlarida bularga rioya qilsalar, yetarli obru qozona oladilar.

Ota va ona obrusi butun hayot davomida kundalik ibratlari xulqi, axloqi, intizomi, kamtarligi, ishbilarmonligi bilangina qo'lga kiritiladi. Ibrat-namuna, zahmat, chin ezgu-niyat evaziga yuzaga kelgan obru haqiqiy obru hisoblanadi. U farzandlar diqqat-e'tiboriga mehr-muhabbat bilan yugriladi. Natijada oila a'zolari totuv, osoyishta, inoq hayot kechiradilar; oilada farzandlar orzu q ilguday, zamona ruhiga mos tarbiya oladilar. Ular ota-onalari bilan behad faxrlanadilar va shu tuyg'u bilan yashaydilar. Bu o'z navbatida, yoshlarda kelajak hayoti uchun, turmush uchun ibratlari axloq ko'nikmalarini tarkib toptiradi.

Ba'zi ota-onalar borki, ular bolalar, oila a'zolari o'rtasida ka-londimog'lik, serzardalik, badjahllik, o'zini o'ta og'irkarvon tutish, «donishmand» qilib ko'rsatish yo'li bilan obru orttirmoqchi buladilar

Oilada ayrim ota-onalar tazyiq etish yo'li bilan farzandlari o'rtasida obru orttirishni xohlaydilar. Bunda ular qo'rqtish nourin buyruq berish, tazyiq o'tkazish usullarini qo'llashadi. Ular zaharxandalik va badjazushikni tarbiya vositasi deb hisoblaydilar. Qo'rqinch asosida bolada vujudga kelgan «bo'ysunish»ni ular o'zlaricha obru deb tushunadilar.

Ba'zi ota-onalar farzandlari bilan kamroq muloqotda bo'lish, ulardan o'zlarini nariroq olib yurish bilan obru orttirishni o'ylashadi. Ularning nazarida, guyo farzand bilan qancha kam uchrashilsa, shuncha ko'proq obru qozonish mumkin. Bu mutlaqo noto'g'ri tushuncha, ota-onsa o'z farzandi bilan qancha kam muloqotda bo'lsa, ular o'rtasida begonalashish, loqayd bo'lish xolatlari kelib chiqadi.

Ayrim ota-onalar bola bilan faqat rasmiyatçilik orqali orbu ort-tirishga harakat qilishadi, holos. Bunda ular qildan qiyiq qidirishadi, bolaga tanbeh berishadi, uning barcha xatti-harakatlarini cheklab qo'yishadi, bular-bo'lmasga jerkib, siltalab tashlashadi.

Kuzatishlarimizga ko'ra, farzandlarga ortiqcha pand-nasixat qilaverish yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Chunonchi, ba'zi ota-onalar arzimagan mayda-chuya masala bo'yicha ham uzundan-uzoq o'git-nasihat qiladilar, o'zlarining nasihatgo'yligini burch deb hisoblaydilar. Maydagaplik, ezmalik bilan o'g'il-qizlar o'rtasida obru qozonib bo'lmaydi.

Turmushda shunday ota va onalar ham uchraydiki, ular sohta yaxshilik qilish orqali farzandlari oldida obru orttirmoqchi bo'ladilar. Bunday ota-onalar o'zlarining yumshoq muomalaligi, beozorligi, kechiruvchanligi, yon beruvchanligi, kam talabchanligi bilan farzandlarni o'zlariga rom qilib olishni istaydilar. Ularda naqat'iyatlilik, na talabchanlik, na barqarorlik mavjud. Unutmaylikki,

tilyog'lamalik, sohtalik, sun'iylik bilan bolani yaxshi yo'lga solib va uning oldida obru qozonib bo'lmaydi.

Ota-onas obrusini orttirishda, eng avvalo, ibrat-namuna muhim rol o'ynaydi. Oilada tarbiya ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ota-onas tinmay o'zlarini tarbiyalab borishlari kerak. O'zlarida yetishmaydigan sifat va fazilatlarni to'ldirib, mavjud illatlarni batamom tugatishlari lozim. Chunki ota-onalarning tarbiya jarayonidagi istedodi – bu farzandlarga nisbatan muhabbat va sadoqatdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 20 sentyabr BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi/ Halq so'zi", 2017 y, 23 sentyabr №192 (6886).
2. Akramova F.A. Ijtimoiy psixologiya: o'quv qo'llanmasi. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2007.- 166 b.
3. Alisher Navoiy. Mahbub - ul - qulub. T: O'qituvchi. 1983.
4. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi. T., 2006. 142 b.
5. Hayrullayev M. Farobiy ruhiy proseslar va ta'lim – tarbiya to'g'risida. T: O'qituvchi. 1967.
6. Oila psixologiyasi: Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun. G'.B.Shoumarov tahr. ost. – Toshkent, 2009. 338 b.
7. To'raqulov E, Rahimov S. Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta'lim – tarbiya haqida T: O'qituvchi. 1992.
8. Ummatova S.Sh. Oila psixologiyasi: O'quv qo'llanma. Samarqand: SamDU nashriyoti-2024.128-137 b.
9. Ummatova S.Sh. Rashk fenomenining oila munosabatlaridagi gender va yosh farqlari masalalari. / Monografiya. - SamDU nashriyoti, 2023. -53 b.
10. Qodirov O.S. Umumiy psixologiya // O'quv qo'llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.
11. Qodirov O.S., Sh.N.Xotamov. Ijtimoiy psixologiya // Darslik. - Samarqand, 2023. -360 b.
12. Shoumarov G'.B. tahriri ostida. Oila psixologiyasi. T: Sharq. 2008.